Agroiqtisodchi olimlardan A.Chayanov kooperatsiyaning iqtisodiy mohiyatini mustaqil ravishda o'z faoliyatini birlashtiruvchi turli xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy manfaatlarini mustahkamlashni ta'min etuvchi munosabat sifatida ta'riflaydi. Muallif bu yerda asosiy e'tiborni mol-mulk emas, balki kooperatsiya munosabatlariga kirishgan mustaqil subyektlar manfaatlariga xizmat qilishga qaratish lozimligini alohida uqtiradi. Bu kontseptsiya esa I.Buzdalov tomonidan "Kooperatsiya turli xo'jalik yurituvchi subyektlarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, u o'zida shaxsiy, jamoa va ijtimoiy manfaatlarini birlashtiradi, alohida insonlarning ijodiy mehnatini rag'batlantiradi. Ayni paytda insonning ijtimoiy kafolati bilan birga, sotsial himoyasini ta'min etadi" deb fikr yuritadi.

Qolaversa, yetuk iqtisodchi olimlardan M.Tugan-Baranovskiy asosiy e'tiborini kooperatsiya shakllari va kooperatsiya jarayonining ijtimoiy jihatlariga qaratib, uni ijtimoiy harakat sifatida talqin qilgan bo'lsa, bizning olimlardan R.Husanov o'z ishlarida kooperatsiyaning iqtisodiy jihatlarini tadqiq etadi [4]. Bunda asosiy e'tibor mayda tovar ishlab chiqaruvchilarga qaratilgan bo'lib, kooperatsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy tabiati o'sha davr nuqtai-nazaridan talqin etiladi.

Mamlakatimizda hududlarida tadbirkorlikni rivojlantirish va uning investitsion faolligini ta'minlashni davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga, turli davrda, umumiy holda bajarilgan bo'lib mahsulotni sotish tizimini alohida muammo sifatida tanlagan holda chuqur yondashilmagan. Ayni paytda meva-sabzavotchilik sohasida agrofimlar faoliyatini tashkil etish borasida olib borilayotgan ishlar ham masalaga jiddiy yondashgan holda ilmiy tadqiqotlar olib borish, mavzuga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishning zarurligi ushbu mavzuni tanlashga asos bo'ldi.

Tadqiqotda ilmiy abstraktsiya, dialektik tadqiqot, induksiya va deduktsiya, maqsadli rivojlantirish, monografik kuzatuv, tizimli va qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash, ekspert baholash va iqtisodiy statistik usullardan foydalanilgan.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA


Mamlakatimizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosiy maqsadlaridan biri mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik shakllarini ustuvor rivojlantirishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun iqtisodiy islohotlar o'tkazildi, uning rolini oshirish uchun yirik institutsional asoslar yaratildi. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni kafolatlovchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, tadbirkorlarga ko'maklashuvchi nodavlat tashkilotlar, korxonalar shular jumlasiga kiradi. O'zbekistonda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes korxonalari majmuini tashkil etish muvaffaqiyatli bormoqda. Bugungi kunga kelib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha jabhalarida, mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarishda, xalq iste'moli mollarini, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda hamda boshqa sohalarda faoliyat ko'rsatmoqda.



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni yanada kengaytirish, kichik biznes subyektlarini sanoat faoliyatiga keng jalb etish, sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash va rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini kamaytirish maqsadida "Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori <sup>[1]</sup> qabul qilindi.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" <sup>[2]</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra "Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan ettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga doir davlat Dasturida "milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" masalasiga alohida ahamiyat berilgan.

Respublikamizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilinishini ta'minlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish borasida amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar 2023-yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 523,6 mingtani tashkil etish imkonini berdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 60,8 mingtaga ko'paygan yoki 13,1 % ga oshgan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 17,9 birlikni tashkil qildi. 2022-yil davomida 90,2 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu 2021-yilning shu davriga nisbatan 8,8 %ga kam demakdir (1-rasm).



1-rasm: 2017-2022-yillarda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi <sup>[14]</sup>, ming birlikda

Rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2023-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) soni jami 523 556 tani, shundan yangi tashkil etilganlari 90 177 tani tashkil etdi. 2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Toshkent shahrida 106071 tani yoki jamiga nisbatan 20,3 % ni tashkil etdi. 2022-yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida 35,9 birlik, Navoiy viloyatida 24,8 birlik, Sirdaryo viloyatida 23,0 birlik, Jizzax viloyatida 21,5 birlik va Toshkent viloyatida 19,7 birlikni tashkil etgan.

Respublika bo'yicha 2022-yilda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 17,9 birlikni tashkil etdi. 2022-yilda hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Toshkent shahri -16,7 %, Samarqand viloyati - 11,8 %, Farg'ona viloyati - 9,8 %, Qashqadaryo viloyati - 9,5 %, Toshkent viloyati - 7,5 %, Xorazm viloyati - 6,3 %, Namangan viloyati - 6,1 %, hissalariga to'g'ri keldi.

1-jadval: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar <sup>[14]</sup>, birlikda

	2021-yil yanvar-dekabr	2022-yil yanvar-dekabr	farqi (+;-)
Jami	98 886	90 177	- 8 709
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	11 710	12 018	308
Sanoat	19 285	16 191	- 3 094
Qurilish	6 330	4 795	- 1 535
Savdo	38 459	34 384	- 4 075
Tashish va saqlash	2 642	3 355	713
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6 621	5 812	- 809
Axborot va aloqa	2 521	2 617	96
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 760	1 498	- 262
Boshqa faoliyat turlari	9 558	9 507	- 51





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlarida ishlab chiqarish salmog'idagi o'zgarishlar orqali ham kuzatish mumkin. Xususan, mazkur sohaning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 2021-yildagi 19 285 birlikdan 2022-yilda 16 191 (kamayish - 3 094)ga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida tegishli ravishda 11 710 mingdan 12 018 mingga (o'sish 308), savdoda 38 459 dan 34 384 (kamayish - 4 075)ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1 760 birlikdan 1 498 birlikka (kamayish - 262), tashish va saqlashda 2 642 dan 3 355 (o'sish 713)ga, boshqa faoliyat turlarida 9 558 dan 9 507 (kamayish - 51)ga qadar o'zgargan. 2022-yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 34 384 ta, sanoatda 16 191 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 12 018 ta yangidan tashkil etilgan.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda tashkil etilayotgan yangi ish o'rinlarining  $\frac{3}{4}$  dan ko'p qismi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga to'g'ri keladi. Buning natijasida kichik biznes sohasida aholini ish bilan bandligini ko'paytirish va yangi ish o'rinlarini paydo qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo mamlakatlari 2016-yildan boshlab mintaqaviy kooperatsiyani faollashtirishning eng yangi bosqichini boshladi, unda ongli tarzda iqtisodiy kooperatsiyaga asosiy e'tibor qaratildi. O'zbekiston va Qozog'istonda yangi pragmatik rahbarlarning hokimiyatga kelishi, Xitoy yordamida yangi transport marshrutlari ochilishi, madaniy va boshqa aloqalarni rivojlantirish masalalari muhokama etilishi mamlakatlar ushbu bosqichni samarali bosib o'tishiga yordam beradiganday tuyulgan edi. Markaziy Osiyodagi integratsiya yoki kooperatsiya jarayonlari haqida gap borar ekan, hali Ukrainada urush bilan bog'liq inqiroz yuz bermay turib, uzoq yillar davomida Markaziy Osiyo mamlakatlari eksport va import marshrutlarini rang-baranglashtirishga intilib kelayotgan edi. Endi eksportning eng asosiy marshrutlaridan birida jiddiy muammolar yuzaga kelgach, ushbu vazifaning dolzarbligi oshmoqda. Ayni paytda asosiy muqobil sifatida TMTM, ya'ni Transkaspiy xalqaro transport marshruti salohiyatini kengaytirish bo'yicha ishlar faollashtirilmoqda. Lekin ushbu marshrutdan hali to'liq foydalanilmayotgani va u yaqinda ishga tushirilgani boshog'riq bo'lib turibdi. Sinov sifatida ishga tushirib ko'rildi, konteynerlar tashildi, lekin narxi yuk tashish multimodal bo'lgani uchun qimmat, birinchidan, bir necha turdagi yuk tashishdan foydalaniladi. Aqtaugacha yoki Quriq portigacha yuk quruqlik orqali yetkazib beriladi, so'ngra kemalarga yuklanib, dengiz orqali Ozarbayjonga va undan nari manzillarga qayta yuklanib eltildi. Shu o'rinda, birinchidan, TMTM koridori imkoniyatlarini kengaytirish vazifasi turibdi. Ikkinchidan, Quriq va Aqtau portlarimiz potensialini kengaytirishimiz zarur, chunki G'arb bilan Rossiya o'rtasidagi hozirgi holat, ya'ni sanksiyalar urushi saqlanib qolsa - saqlanib qolish ehtimoli ko'proq - Rossiyaning transport qamali qilish kuchaya boradi. Biz shu sabab eksportimiz yo'nalishini o'zgartirishga oldindan tayyor bo'lishimiz kerak. Uchinchidan, Qozog'iston hukumati ushbu yo'nalishda ish olib bormoqda. Ular Aqtau bilan Quriq portlari atrofida terminallar qurish rejasi borligini oshkor qildi. Yana hukumat Turkiya, Ozarbayjon va Gruziya bilan ayni marshrut bo'yicha Birlashgan transport logistika kompaniyasi (OTLK) tuzish haqida bitim ham tuzdi, u Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YEOII) ichidagi bitimga o'xshab ketadi, yana Transkaspiy marshruti ishtirokchilari tuzgan bitimni ham esga tushiradi <sup>[13]</sup>.


Bundan tashqari, janub yo'nalishi ham bor, albatta. Bu - o'sha Xitoy marshruti. Lekin u - butunlay boshqa narsa, chunki hozir gap bu yerda shimol yo'nalishidagi tranzit bilan bog'liq vaziyat haqida ketyapti. Umuman, Yevroosiyo integratsiyasining moddiy tajassumi bo'lgan Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi tashkil etilgandan beri sanksiyalar sharoitida faoliyat ko'rsatib kelayotganini qayd etish joiz.

Qozog'iston integratsiya yo'nalishini kuchaytirishdan oldin ko'p bor o'ylab ko'rishi zarur. Shuning uchun hamma narsa sanksiyalar bundan keyin qanchalik keskinlashuviga bog'liq. Ikkinchidan, ish iqtisodiy ittifoq qanchalik egiluvchan va o'z vaqtida mushkulotlarga moslasha olishiga, uchinchidan, Rossiya iqtisodiyotidagi vaziyat qay tarzda rivojlanishiga bog'liq.

So'nggi yillarda aholining keng qatlamini tadbirkorlikka jalb qilish va ularning daromad manbalarini kengaytirishga qaratilgan "Har bir oila - tadbirkor", "Yoshlar kelajagimiz" va boshqa ijtimoiy dasturlar doirasida jami 13 trln. so'mdan ziyod imtiyozli kreditlar ajratilib, 600 mingdan ziyod oilalarni qamrab olishga erishildi. Mazkur dasturlar hududlarda aholining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi, uning turmush tarzini yaxshilash va ish bilan bandligini oshirish uchun turtki bo'lib xizmat qilmoqda. Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish, kambag'allikni qisqartirish va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" <sup>[3]</sup> Qarori qabul qilindi.

Integratsiyalashuvning kichik darajasi mamlakatlar iqtisodiyotida yangi xo'jalik yuritish tizimini shakllantirish yo'li hisoblanib, o'zaro pirovard mahsulot ishlab chiqaradigan va geografik yaqin bo'lgan korxona va tashkilotlarni o'z ichiga olgan "Klaster"lar yaratishdir. Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan yiliga 20 mln. dollardan ortiq eksport qiluvchi korxonalarga 5 mln. dollargacha imtiyozli kreditlar ajratildi. Yuqori sifat va nazorat tizimiga ega Yevropa Ittifoqi, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda sertifikat berilgan asbob-uskuna va xom ashyolarga milliy sertifikat olish amaliyoti bekor qilindi.





2-rasm: Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati <sup>[14]</sup>

2022-yilda kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 5695,8 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 29,5 % ini tashkil etdi. 2022-yilda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 15154,1 million AQSh dollarini yoki jami importning 49,4 % ini tashkil etdi. Xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlar uchun import boji stavkalari pasaytirildi.

2-jadval: 2022-yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash <sup>[14]</sup>, % da

	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	ko'payish (yaxshilanish)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish)
Korxonaning umumiy aylanmasi	44,4	44,7	10,9
Band bo'lganlar soni	24,5	68,1	7,4
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	38,2	56,0	5,8
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	29,0	63,8	7,2
Raqobat muhiti	40,8	54,3	4,9

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2017-yilda 12 976 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022-yilga kelib esa 28 507 taga etgan yoki 2017-yilga nisbatan 15 531 taga oshgan. Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2017-yilda 21 296 ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022-yilda 42544 ta yoki 21 248 taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2017-yilda 2 840 tani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 5719 tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2017-yilga nisbatan 2 879 taga oshgan. Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - 58,1 % ni, sanoatda - 55,8 % ni, xizmatlar sohasida - 54,9 % ni tashkil etdi. Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilishda - 9,2 % ni, sanoatda - 8,9 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - 8,5 % ni tashkil etdi.

Mamlakatimizda biznesni yuritish bilan bog'liq barcha jarayonlarni yanada liberallashtirish, soddalashtirish va arzonlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida kichik biznesning respublikamiz iqtisodiyotidagi tutgan o'rni tobora mustahkamlanib bormoqda.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni liberallashtirish, biznes yuritish shart-sharoitlarini yanada yengillashtirish, qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi ortiqcha to'siq va g'ovlarni bartaraf etish bo'yicha keskin va ta'sirchan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi sohaning yanada rivojlanishiga



zamin va turtki bo'lmoqda. Tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning eng muhim vazifasi - kichik korxonalarga teng huquqlarni ta'minlash, kichik va yirikroq korxonalar o'rtasidagi xo'jalik imkoniyatlari bo'yicha farqni imkon qadar kamaytirish, O'zbekiston xo'jaligining bozor tizimini shakllantirishning bazaviy jarayonlarida kichik va yirik tadbirkorlikning eng maqbul nisbatini ta'minlashdan iborat. Bu birinchi galda, raqobatli bozor musobaqasida teng huquqlilikni, faoliyat turini erkin tanlash sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yuritishda teng imkoniyatlar yaratish, ularning huquqlari va javobgarligini, imkoniyatlari va tavakkalchiligini aniq belgilashdir. Bunda ijtimoiy, iqtisodiy, yuridik, siyosiy va boshqa qulay sharoitlar mavjud bo'lsagina biznesni muvaffaqiyatli rivojlantirish mumkin.

## XULOSA

Jahon iqtisodiyotida kichik biznes ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda, yangi ish o'rinlarini barpo qilishda, bozor o'zgarishlariga nisbatan tez moslashishda va mulkdorlar sinfini shakllantirishda alohida ahamiyatga va yuqori samaradorlikka ega ekanligi tasdiqlanmoqda. Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari integratsion aloqalari hamda moliyaviy barqarorligini oshirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- banklar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat yalpi mahsulot ishlab chiqarishdagi ulushini ko'paytirish maqsadida sohaga kredit ajratish mexanizmini takomillashtirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari faoliyatini rivojlantirishga xorijiy kredit liniyalaridan mablag'lar jalb qilishni kengaytirish;
- iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi kichik biznes korxonalar faoliyati barqarorligini reyting usulida baholashni yanada takomillashtirish zarur;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik - istiqbolda ishlab chiqarish va eksport tarkibida samarali, tezlikda o'zgarish qobiliyatiga ega bo'lgan soha sifatida iqtisodiyotda muhim ahamiyat kasb etishiga erishish kerak;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik unumli hamda modernizatsion texnikaviy baza asosiga ega bo'lishi kerak. Bunda bozor infratuzilmasini muhim markazlar, lizing tashkilotlari tizimini har taraflama servis xizmatlarini yo'lga qo'yish bilan rivojlanishi lozim;
- kichik biznesni keng ko'lamli rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni, birlamchi, jahon moliya institutlarining kreditlarini va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish hamda yo'naltirish;
- sanoat tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish va yuqori texnologiyaga asoslangan zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlar tomonidan ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish masalalarini tubdan hal etish, ularning eksport salohiyatini oshirishga ko'maklashish.

Integratsiyalashgan tuzilmani tashkil etish bo'yicha ishchi guruh tuzish, ishlarni amalga oshirish tartibi, muddatlari va moliyalashtirish manbalarini aniqlashtirib olish. Ishchi guruh quyidagi variantlardan birini ifoda etishi mumkin:

- ekspertlar sifatida mahalliy hokimiyat idoralari mutaxassisleri va tarmoq korxonalari vakillaridan iborat bo'lgan ishchi guruh;
- ma'lum bir xizmatlar ko'rsatish maqsadida tuzilgan shartnomalar asosida faoliyat ko'rsatuvchi konsalting kompaniyalari, oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va mahalliy hokimiyat idoralari vakillari;
- ta'xischilaridan biri mahalliy hokimiyat idoralari bo'lgan ixtisoslashtirilgan tashkilot.

Fikrimizcha, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatida kooperatsion-integratsion aloqalarni hamda ularning faoliyatini moliyalashtirishning moliya-kredit mexanizmini rivojlantirish maqsadida qo'yidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir <sup>[15]</sup>.

- mamlakatimiz va uning hududlarida yanada qulay biznes muhiti yaratish, xususiy mulkchilikning ustuvorligini mustahkamlashga yo'naltirilgan qonun hujjatlarini takomillashtirish;
- xususiy tadbirkorlikka ko'proq erkinlik berish, davlatning boshqaruv funksiyalari va belgilangan me'yorlarni qisqartirish;
- kichik biznes subyektlarining moliya-kredit va xom ashyo resurslaridan, ular ishlab chiqargan mahsulotlarga davlat buyurtmalari berilishidan keng foydalanishni ta'minlaydigan bozor vositalari va mexanizmlarini tatbiq etish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi uchun soliq va boshqa to'lovlar bo'yicha yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, imtiyoz va preferentsiyalar berish, hisobotlar tizimi hamda moliya, soliq va statistika organlariga hisobotlar topshirish mexanizmini takomillashtirish va unifikatsiyalash;



- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga tijorat banklari tomonidan kreditlar berish mexanizmini yanada takomillashtirish va ularning hajmini oshirish;
- kichik biznesni rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni hamda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish va yo'naltirish;
- sanoat tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda yuqori texnologiyaga asoslangan zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish masalalarini tubdan hal etish, ularning eksport salohiyatini oshirishga ko'maklashish va b.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash mexanizmini rivojlantirish chora-tadbirlarining samarali amalga oshirilishi: yangi ish o'rinlarini barpo etish asosida ishsizlar sonini qisqartirish va aholi bandligini ta'minlashga; respublikaning barcha mintaqalaridagi mikromoliyaviy xizmatlarga muhtoj aholini to'liq qamrab oluvchi mikromoliyalashning zamonaviy tizimini yaratishga; kam ta'minlangan, biroq iqtisodiy faol aholi qatlamini va yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish orqali istiqbolida o'rta mulkdorlar keng qatlamining shakllanishiga; tijorat banklari va nobank kredit tashkilotlarining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini mikromoliyalash hajmlarini ko'paytirishga va barqaror iqtisodiy o'sishga imkoniyat yaratadi.

Xulosa qilib ta'kidlash lozimki, kichik biznes subyektlarining qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining yanada takomillashtirilishi va ularning barqaror rivojlanishini ta'minlash borasidagi yangi samarali chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi respublikaning iqtisodiyoti raqobatbardoshligini ta'minlashga va uning tashqi bozordagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi. Kichik biznesni moliyalashtirishni takomillashtirish avvalambor, shu soha vakillari faoliyatidagi to'siqlarni bartaraf qilish, tijorat banklarining resurs bazasini shakllantirish, xorijiy kredit liniyalarini jalb etish, tijorat banklariga ular faoliyatini kreditlash bilan bog'liq imtiyozlar yaratish, aniq axborotlar bazasini shakllantirish, garov bilan bog'liq muammolarni bartaraf qilishdan iboratdir.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. "Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida". 01.05.2019-yil, PQ-4302-son, <https://xs.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". 28.01.2022 yil, PF-60-son, <https://lex.uz/docs/5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 13.10.2020-yil, PQ-4862-son, <https://lex.uz/docs/5045889?ONDATE=27.03.2021>
4. Alimova M., Ravshanov Kh. Theoretical Aspects of Cooperative Relations in the Production and Sale of Fruit and Vegetable Products. Academic Journal of Digital Economics and Stability. Special Issue on "Innovative Economy: Challenges, Analysis and Prospects for Development" Published in Aug-2021, Online: <https://academicjournal.io>, p.795-800
5. Murodova N.K. Kichik biznes subyektlarining tadbirkorlik faolligini oshirishning asosiy yo'nalishlari. Iqt.fan.nom. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2008. –21-b.
6. Qulmatov A.A. O'zbekistonda kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari. Iqt.fan.nom. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2004. –21-b.
7. Olimova, N. X., & Karimov, Sh. X. (2020). Real sektor korxonalarida innovatsion yangiliklarni joriy qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. In Mintaqa iqtisodiyotini investitsiyalashning moliyaviy-huquqiy va innovatsion jihatlari (pp. 423-427).
8. Akhunova, O. E., Kh, O. N., & Kh, E. A. (2019). Role of innovative technologies in ensuring competitiveness of export products in Uzbekistan. Process management and scientific developments.
9. Олимова, Н. Х., & Эргашев, А. Х. (2017). Особенности оценки инвестиционной привлекательности реального сектора экономики. www. issledo. ru Редакционная коллегия, 120.
10. Олимова, Н. Х., & Юлдашев, Д. Т. (2016). The role of small business and private entrepreneurship in the economic activities. Молодой ученый, (9), 682-683.
11. Kh, O. N., & Kamoldinov, D. I. (2021). Development of industrial enterprises and analysis of the factors of their competitiveness. Ceteris Paribus, (2), 5-8.
12. Ergashev, A. X., & Olimova, N. X. (2020). Innovatsiyalarni yaratish va ularni sanoat kor-xonalari faoliyatiga joriy etishning asosiy masalalari. In Mintaqa iqtisodiyotini investitsiyalashning moliyaviy-huquqiy va innovatsion jihatlari (pp. 487-490).
13. Markaziy Osiyodagi mintaqaviy integratsiya taqdiri nima bo'ladi? <https://davr24.uz/archives/8519>
14. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. –2022-yil yanvar-dekabr
15. <http://elibrary.ru>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 1**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.